I. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023- yil 1- aprel holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni *(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)* 27 301 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 22 592 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 82,8 foizni tashkil qildi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (22,4 foiz), Karmana (15,5 foiz), Qiziltepa (13,1 foiz) va Xatirchi (11,7 foiz) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2023- yil 1- aprel holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	birlik	***jamiga nisbatan, % da***	***birlik***	***jamiga nisbatan, % da***
Jami	**27 301**	**100,0**	**22 592**	**100,0**
Navoiy sh.	6 102	22,4	4 943	21,9
Zarafshon sh.	1 942	7,1	1 692	7,5
G‘ozg‘on sh.	399	1,5	368	1,6
Konimex t.	4 236	15,5	3 296	14,6
Qiziltepa t.	1 160	4,2	987	4,4
Navbahor t.	3 590	13,1	3 016	13,3
Karmana t.	2 871	10,5	2 405	10,6
Nurota t.	1 898	7,0	1 573	7,0
Tomdi t.	761	2,8	611	2,7
Uchquduq t.	1 155	4,2	974	4,3
Xatirchi t.	3 187	11,7	2 727	12,1

Ro‘yxatdan o‘tgan sub‘ektlarning hududlar bo‘yicha ulushi, (% da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning savdo (34,3 foiz), sanoat (16.0 foiz), qurilish (7,0 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (12,3 foiz) sohalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
(2023- yil 1- aprel holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	birlik	***jamiga nisbatan, % da***	***birlik***	***jamiga nisbatan, % da***
Jami	**27 301**	**100,0**	**22 592**	**100,0**
shu jumladan:				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 371	12,3	2 721	12,0
sanoat	4 368	16,0	3 506	15,5
qurilish	1 907	7,0	1 491	6,6
savdo	9 356	34,3	7 958	35,2
tashish va saqlash	882	3,2	768	3,4
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 676	6,1	1 308	5,8
axborot va aloqa	347	1,3	287	1,3
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	393	1,4	356	1,6
boshqa turlari	5 001	18,3	4 197	18,6

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi
(2023- yil 1- aprel holatiga)

12,0 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

15,5 %

Sanoat

6,6 %

Qurilish

35,2 %

Savdo

3,4 %

Tashish va saqlash

5,8 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

1,3 %

Axborot va aloqa

1,5%

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

18,6 %

Boshqa turlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotgan sub‘ektlarning ulushi 82,8 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 17,2 foizni tashkil etganligini ko‘rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



2023- yil 1- aprel holatiga 20 384 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 11 377 ta, xususiy korxonalar 5 170 ta, oilaviy korxonalar – 3 638 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 19 ta, unitar korxona 48 tani va 132 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning tashkiliy- huquqiy shakllari bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda*



2023- yil yanvar- mart oylarida jami 1 125 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 90,9 foizni tashkil etdi, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (181 ta), Karmana (159 ta), Qiziltepa (157 ta), Xatirchi (137 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Eng kami esa Tomdi (42 ta) tumani va G‘ozg‘on shahar (24 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 32,1 foiz, sanoatda 18,9 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 14,8 foiz qurilish va 4,4 foizni tashkil etdi.

2023- yil 1- aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining soni 20 278 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 foizga kamaydi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining asosiy qismi, ya‘ni 4 326 tasi (jami sub‘ektlarning 21,3 foizi) Navoiy shahri, 3 026 tasi (14,9 foizi) Karmana, 2 771 tasi (13,7 foizi) Qiziltepa, 2 431 tasi (12,0 foizi) Xatirchi hamda 2 224 tasi (11,0 foizi), Navbahor tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa 528 tasi (2,6 foizi) Tomdi, 847 tasi (4,2 foizi) Konimex tumanlari, 333 tasi (1,6 foizi) G‘ozg‘on shahar hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes sub‘ektlari
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)
(2023- yil 1- aprel holatiga)

	Jami	*Faoliyat yuritayotgan*	*Faoliyat yuritmayotgan*	*2023- yil yanvar-mart oylarida yangidan tashkil etilgan*	*2023- yil yanvar- mart oylarida faoliyati tugatilgan*	*1000 kishiga to‘g‘ri keladiga KB sub‘ektlari*
Jami	**24 829**	**20 278**	**4 551**	**1 085**	**329**	**23,4**
Navoiy sh.	5 415	4 326	1 089	170	25	34,4
Zarafshon sh.	1 792	1 551	241	89	67	20,6
G‘ozg‘on sh.	363	333	30	24	7	39,9
Karmana t.	3 949	3 026	923	150	23	28,9
Konimex t.	1 016	847	169	57	22	27,1
Qiziltepa t.	3 335	2 771	564	153	36	20,9
Navbahor t.	2 676	2 224	452	107	15	22,4
Nurota t.	1 705	1 385	320	73	23	19,3
Tomdi t.	671	528	143	39	6	42,5
Uchquduq t.	1 030	856	174	88	29	26,2
Xatirchi t.	2 877	2 431	446	135	76	13,7

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining hududlar bo‘yicha soni

	2022- yil 1- aprel holatiga		*2023- yil 1- aprel holatiga*	
	birlik	*jamiga nisbatan, % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**21 049**	**100,0**	**20 278**	**100,0**
Navoiy sh.	4 706	22,4	4 326	21,3
Zarafshon sh.	1 565	7,4	1 551	7,6
G‘ozg‘on sh.	262	1,2	333	1,6
Konimex t.	774	3,7	847	4,2

	2022- yil 1- aprel holatiga		2023- yil 1- aprel holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan, % da	birlik	jamiga nisbatan, % da
Qiziltepa t.	2 836	13,5	2 771	13,7
Navbahor t.	2 233	10,6	2 224	11,0
Karmana t.	3 436	16,3	3 026	14,9
Nurota t.	1426	6,8	1 385	6,8
Tomdi t.	483	2,3	528	2,6
Uchquduq t.	792	3,8	856	4,2
Xatirchi t.	2 536	12,0	2 431	12,0

Faoliyat ko‘rsatayotgan jami 20 278 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining 7 940 tasi (39,2 foizi) – savdoda, 3 481 tasi (17,2 foizi) - sanoatda, 2 683 tasi (13,2 foizi) - qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 1 482 tasi (7,3 foizi) - qurilishda, 1 304 tasi (6,4 foizi) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 758 tasi (3,7 foizi) - tashish va saqlashda, 284 tasi (1,4 foizi) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 279 tasi (1,4 foizi) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2 067 tasi (10,2 foizi) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 1- aprel holatiga ko‘ra) birlikda



2023- yil 1- aprel holatiga Navoiy shahrida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 4,4 foizni (1 089 ta), Navbahor tumanida 1,8 foizni (452 ta), Karmanada 3,7 foizni (923 ta), Xatirchida 1,8 foizni (446 ta), Konimexda 0,7 foizni (169 ta) va Tomdi tumanida 0,6 foizni (143 ta) tashkil qilgan.

Hisobot davrida 329 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining faoliyati tugatilgan bo‘lib, ulardan sanoat 69 ta (21,0 foizi), savdo 125 ta (38,0 foizi), qurilish 21 ta (6,4 foizi) hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 40 ta (12,2 foizi) sohalariga to‘g‘ri keladi.

2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapital ishtirokidagi korxonalar soni 219 tani tashkil etdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 121 tasi qo‘shma korxonalar, 98 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga)



Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni

	Jami	*shundan:*	
		Qo‘shma korxona	*Xorijiy korxona*
Jami	**219**	**121**	**98**
Navoiy sh.	64	45	19
Zarafshon sh.	14	7	7
G‘ozg‘on sh.	4	2	2
Konimex t.	9	5	4
Qiziltepa t.	17	9	8
Navbahor t.	8	4	4

	Jami	shundan:	
		Qo‘shma korxona	Xorijiy korxona
Karmana t.	62	28	34
Nurota t.	15	10	5
Tomdi t.	8	6	2
Uchquduq t.	7	1	6
Xatirchi t.	11	4	7

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahri 64 ta (29,2 foiz) va Karmana 62 ta (28,3 foiz) tumani hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar G‘ozg‘on shahrida 4 ta (1,8 foiz), Uchquduq tumanida 7 ta (3,2 foiz), Tomdida 8 ta (3,7 foiz), Konimexda 9 ta (4,1 foiz) va Xatirchi tumanlarida11 tadan (5,0 foiz) to‘g‘ri keldi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo‘yicha soni va ulushi
(2023- yil 1- aprel holatiga)

	birlik	jamiga nisbatan, % da
Jami	**219**	**100,0**
Navoiy sh.	64	29,2
Zarafshon sh.	14	6,4
G‘ozg‘on sh.	4	1,8
Konimex t.	9	4,1
Qiziltepa t.	17	7,8
Navbahor t.	8	3,7
Karmana t.	62	28,3
Nurota t.	15	6,8
Tomdi t.	8	3,7
Uchquduq t.	7	3,2
Xatirchi t.	11	5,0

Faoliyat ko‘rsatayotgan 219 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, 117 tasi (53,4 foiz) sanoat, 35 tasi (16,0 foiz) savdo, 22 tasi (10,0 foiz) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 17 tasi (7,8 foiz) qurilishda, 4 tasi (1,8 foiz) tashish va saqlash, 3 tasi (1,4 foiz) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda, 2 tasi (0,9 foiz) sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 2 tasi (0,9 foiz) axborot va aloqa, 17 tasi (7,8 foiz) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi
(2023- yil 1- aprel holatiga)

	birlik	***Jamiga nisbatan, % da***
Jami	**219**	**100,0**
shu jumladan:		
Sanoat	117	53,4
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	22	10,0
qurilish	17	7,8
savdo	35	16,0
tashish va saqlash	4	1,8
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	3	1,4
Axborot va aloqa	2	0,9
Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2	0,9
boshqa turlari	17	7,8

2023- yil yanvar- mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalarning soni 11 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi-3 ta, Afg`oniston -2, Xitoy Xalq Respublikasi-2, Eron Islom Respublikasi, Birlashgan Arab Amirligi, Amerika Qo'shma Shtatlari hamda Hindiston Respublikalarida 1 tadan to‘g‘ri keladi.

11 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Karmana (4 ta) tuman, Navoiy (3 ta) shahar, Xatirchi (2 ta) tuman, Nurota tuman va G‘ozg‘on shahrida (1 ta) dan hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

	birlik	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**11**	**100,0**
Navoiy sh.	3	27,2
Zarafshon sh.	-	-
G‘ozg‘on sh.	1	9,1
Konimex t.	-	-
Qiziltepa t.	-	-
Navbahor t.	-	-
Karmana t.	4	36,3
Nurota t.	1	9,1
Tomdi t.	-	-
Uchquduq t.	-	-
Xatirchi t.	2	18,3

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 4 ta, savdoda 3 ta, qishloq xo‘jaligida 2 ta tashish saqlashda 1 ta va boshqa tarmoqlarda 1 tadan.

2023- yil 1- aprel holatiga 79 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar hisoblanib, shundan Navoiy shahri (29 ta), Karmana tumani (22 ta), Nurota (10 ta), Zarafshon shahri, Xatirchi tumanida (4 tadan), Navbahor (3 ta), Qiziltepa, Konimex, Uchquduq tumanlarida (2 tadan) va Tomdi tumani (1 ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- aprel holatiga 4 449 tani tashkil etib, ulardan 3 638 tasi yoki 81,8 foizi faoliyat yuritmoqda.

2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 17,7 foizga yoki 439 taga kamaydi.